

## BUYUK DABUS QAL'AM

**Raimova Laziza**

*O'zbekiston Finlandiya Pedagogika Instituti talabasi*

*O'qituvchi: Madina Ahrorova*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Dabus qal'a tarixi va uning saqlangan qismini o'rganishdir. Dabus qal'adan chiqqan olim u ulamolar , bizga qoldirgan xarobalarini o'rganish, tarixdagi Dabus qal'ani tiklash, bizga qoldirgan tarixiy meroslarni asrash haqida so'z yuritadi. Bu maqolada biz Dabusiya va uning boy tarixi va Buyuk ipak yo'lida qilgan xizmatlarini haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** Dabus qal'a, Paxtachi tumani, Ziyovuddin, Imom Bahra Ota, shahriston, rabot, Zarafshon daryosi, Zirabuloq, Qarnab Ota.

## MY GREAT DABUS QAL'A

**Rakhimova Laziza**

**Teacher: Akhrorva Madina**

**Finnish Pedagogical Institute  
of the Uzbekistan**

This article is a study of the history of Dabus fort and its preserved part. Scholars who came out of Dabus Castle are studying the ruins of the city left to us, talking about restoring the Dabus Castle in history and preserving the historical heritage left to us. In this article, we recall Dabusia and its rich history and contributions to the Great Silk Road.

**Keywords:** Dabus Castle, Pakhtachi District, Ziyovuddin Imam Bahra Ota, Shahriston, Rabat, Zarafshan River, Zirabulok Karnab Ota.

Zarafshon daryosining sohilida joylashgan bir muqaddas joy bor. Bilganlar uni e'zozlab "Avliyo ota " deb ulug'laydi. "Dabus qal'a " "Dabus ""Dahbus qal'a " deb ham atashadi. "Dabus qal'a" buyuk Turon tarixida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Zarafshon daryosining sohilida joylashgan. Bu qal'aning tarixi 3 ming yilga borib taqaladi. Qadimda u ulkan shahar bo'lgan ammo hozir o'rnnini qabrlar egallagan. Dabus qal'aning yolg'iz yodgori "Imom Bahra " Ota maqbarasidir. Uning ustiga laylaklar in qurgan va har bahor laylaklar o'z ajdodlarini tark etmaydilar. Shu bois paxtachiliklar yil Dabus qal'adan boshlanadi deyishida hikmat bor. Ulug' shahar tuproq ostida qolgan. Istahriy va Muqaddasiylarning yozishicha X asrda Dabus qal'asida rabot qariyb 70 hektar shahriston esa 22- 23 hektar bo'lgan. Mustahkam minoralarni, shaharni himoya etish uchun qurilgan. Qal'aning shimolidan Zarafshon daryosi oqadi. Sharqdan g'arbg'a qarab

yo'nalgan daryo o'zanini chapga burib qal'aning ko'tarmasiga tik uriladi. Ammo ziyon - zahmat yetkazmaydi. Go'yoki, Zarafshon daryosi Dabus qal'aning poyiga sajda qiladi. Xalq orasida bir rivoyat bor. Aytishlaricha, qal'a ko'tarmasida Hazrat Alining muborak panjalari izi bor. Shuning uchun daryo suvi qal'a tuprog'ini yuvib olib ketmaydi. Tik turgan jarlik qulamaydi. Zarafshon daryosining so'l sohilida Buyuk ipak yo'lidagi qadimiy bekat gavjum shahar savdo- sotiq hunarmandchilik markazi hisoblangan. Bizga qoldirgan yagona yodgorlik Imom Bahra Ota binosining aynan o'xshashi yo`q binoning umumiyo ko'rinishi noyob. Asrlar g'amini ko'ksida yashirib uxlayotgan mo'ysafid shahar ko'ksida bu maqbara salobat to'kib turibdi. Afsuski, aholi bu maqbara haqida keng tasavvurga ega emas. Aytishlaricha, Arablar bu yerlarni bosib olganda ilk marta bu maqbarada namoz o'qishganda Abu Bohra ota imomlik qilgan. Shu tariqa u Imom Bahra deb nomlanib ketgan. Imom Bahra qatl etilib dafn qilingan bu joy keyinchalik muqaddas qadanjoga aylangan. Yuksak peshtoqlar, nafis gumbazlar o'ziga xos me'moriy yechim xonaqohni mahobatli qilib ko'rsatadi. Sharq bilan G'arbni tutashtiruvchi Buyuk ipak yo'li yonginasida joylashgan Imom Bahra ota dunyo mamlakatlari xalqlariga beg'araz yo'l ko'rsatib turgandek, go'yo. Dabus qal'a dengiz sathidan 30 m balandlikdagi yerni ishg'ol qilgan. Dabus qal'a bunyod etilganda juda yirik shahar bulgan. Zarafshon daryosi ming yillardan beri unga urilib oqib kelishiga qaramay Dabus qal'a o'pirilib ketmagan. Oq daryo va qora daryo oxirida joylashgan Dabus qal'adan faqat xarobalar qolgan. O'rta Osiyoning yirik shaharlardan hisoblangan Dabus qal'adan IX-X- asrlarda aholi juda zinch yashagan. Qal'a atrofi katta jarliklar, suv o'ngirliklardan iborat bo'lgan. Dabus qal'a Samarqand va Buxoro viloyatlarini tutashtirib turadigan mustahkam qal'a bulgan. Qal'ada yashirin yer osti yo'llari bo'lib ular maxfiy tutilgan. Aytishlaricha, qal'aga ichimlik suvi Zarafshon daryosidan olinmagan tog'lar bag'ridan chiqqan Zirabuloqdan suv olingan. Aholi yer osti quvirlari orqali suv bilan ta'minlangan. Bugungi kundagi bu xarobalar qal'a haqidagi juda ko'p sir-asrорlarni o'zida yashirib yotibdi. Uni izlab topish qoldi, xolos. Dabus qal'a "mustahkam" degan ma'noni anglatadi. G'iyos ul- lug'atda ham bu haqida batafsil keltirilgan. Bu ma'no Yoqut tomonidan ham aytildi Dabus qal'a "mustahkam", "o'q o'tmaydigan qal'a" degan ma'nolarni beradi. Dabus qal'a tarixi qiziq hikoyalarga boy. X asrda yashab ijod qilgan buyuk filolog va geograf Abdulfaray ibn Ja'far Qudama bundan ming yil oldin yozilib kitobdan kitobga ko'chirilib bir necha marta nashr etilgan "Kitob ul- xiroj va san'at al- kitobia" asarida Dabus nomi bilan ataladigan qadimiy shahar Iskandar tomonidan qurilganligi rivoyat qilinadi. Iskandar yajuj-majujlar hujumiga qarshi istehkom qurib u Samarqandni ad - Dabussiya nomi bilan mashhur shaharni barpo etib keyin Buxoro yerlariga ko'chib Buxoroni quradi. Lekin aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Lekin har bir afsona zamirida albatta haqiqat

bo'ladi. Xullas, mashhur olimning ma'lumotiga ko'ra Dabus shahrining yoshi 2340 yildan oshgan. Dabus nomini sharaflagan buyuk zotlardan mashhur qozi Abu Zayd Ubaydullo ibn Umar ad - Dabusiyydir. U 978 - yili Dabusiyyada tug'ilgan va dastlab ta'limni o'z ona shahrida olgan. So'ngra Buxoro shahrida o'qishni davom ettirgan. Ul zot yetuk ulamo bo'lib yetishgach fiqx va shariatga oid asarlar yaratgan. Tarixga aylangan bir necha asrlar davomida mustahkam qal'a hisoblanib Dabus qal'a dahshatli qalqon bo'lib xizmat qilgan. 12 Asrning oxirlarida va 19 Asrning boshlarida qal'a qo'rg'on ko'rinishida saqlangan. Buxoro hukmdori Amir Haydar 1817 - yilda Dabus qal'a viloyatida bo'lган. Amirning tashabbusi bilan bu yerda yagona yodgorlik Imom Bahra Ota obidasi qurdirilgan. Keng cho'l bag'ridagi Qarnab Ota qishlog'ida ulkan alloma tabarruk zot cho'l buzrugni Ibrohim Shayx Qarnab Ota dafn etilgan joyda dahma tiklanib marmartosh o'rnatildi. Ko'p yillik tarixiga ega bo'lgan va o'zida mashhur olim u ulamolarni yetishtorib chiqargan Dabus qal'a hozirda ozgina qarovsiz qolgan qal'aning bir qismini Zarafshon daryosi yuvib ketgan. Katta qismi mo'g'ullar tomonidan vayron etilgan. Va hozirda uning bir qismi qabristonga aylangan. Ko'milgan orzu umidlar armonlar maskaniga aylangan bu tabarruk manzildagi ziyyorotgoh tarixning qat - qat sirlarini o'zida pinhon tutib kelmoqda. Qal'ai Dabus hali to'laligicha o'rganilmagan. Dabus qal'a - o'rganilmagan xazina hisoblanadi. Dabusiya Buyuk ipak yo'lida juda katta xizmat qilgan shahar hisoblanadi. Manbaalarda keltirishlaricha, Dabusiylilar zargarlikka juda usta xalq bo'lган. Kulolchikni, jundan har xil matolar to'qishni, ipakdan paxtadan matolar to'qishni yaxshi egallagan hunarmand xalq bo'lган. Dabusiyyada yetishtirilgan narsalar Buyuk ipak yo'li orqali boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Ayrim manbaalarda aytishchicha, Arab hukmdorlari Dabusiyyada ishlab chiqarilgan matolardan tikilgan kiyimlarni kiyishni yaxshi ko'rgan ekan. Chunki bu matolar o'zining mustahkamliligi bilan sifati bilan ajralib turgan. Keyinchalik mo'g'ullar zarbasiga uchrab vayronaga aylangan va haligacha bu shahar qayta tiklanmagan. XIII asrgacha bu Dabussiya shahri bo'lган 13asrdan keyin Dabus qal'aga aylangan. Uchchala qismi bilan hisoblaganda 25 hektarlik joy. Bugungi kunda uning aniq o'lchamlarini aytish qiyin. Davusianing katta qismini 50 - 60 yillarda paxta maydoniga aylantirib yuborilgan. Bir qismini Zarafshon daryosi yuvib ketgan. Bundan 10 yillar oldin Yaponiya va O'zbekistonlik olimalar Dabussiya shahrida qazishma ishlari olib borgan va uning yoshini aniqlagan. Sharqshunos A.Vamberning yozishchicha, " Bu rustoqning diqqatga sazovor joylaridan biri Buxoro yo'nalishidagi yo'lning g'arbiy qismidagi Dabus, keyinchalik Dabus qal'adir. Endilikda bu yerda quyidagi tumanlardan iborat viloyat mavjud. Ziyovuddin, Xatirchi, Nurota kabi joylardan tarkib topgan. Buxoro amirligi hududining sharqida chegara qismida joylashgan Ziyovuddin bekligi hamisha

amirlikning e'tiborida bo'lgan. Tarixiy hujjatlarda keltirishicha, ma'lumotlar uzil - kesil xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi: " Qadimiylar tarixga ega Dabus qo'rg'oni hozirgi Ziyovuddin yaqinida joylashgan bo'lib, o'tgan asrning o'rtalarida ular aynan bir deb hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li yonida joylashgan Dabus qal'a keng hududga ega alohida bir viloyat bo'lgan. Mirza Bade devonning 1798 - yilda yozilgan quyidagi ma'lumot keltirilgan: " Buxoro mamlakatida shunday qonun va odatlar belgilangan: oliv darajali lavozimlar mavjud bo'lgan viloyatda islom hukmdori uni hokim qilib tayinlaydi. Hokim va uning qo'shini uchun mablag' o'sha hokimning viloyatidan tushadi. Bunday joy viloyat deb ataladi. " Dabus qal'a katta qo'shin saqlangan va manzilni dushmanlardan himoya qilish uchun xizmat qilgan. Qal'a dushmanidan saqlanish uchun juda qulay joy bo'lgan. Natijada, xaroba qal'aning tuproq ostida qolib ketmasligi uchun yonida imoratlar qurilgan. Necha yillardir ki bu ko'hna shahar bag'rida asrab kelayotgan ezgulik, jasur va sinchkov xolis kashfiyotchilarni kutyapti. Dabusiy qal'asi ulkan tarixiy manbaa, chuqur arxeologik izlanishlar olib borilsa bu zalvorli tuproq unitilgan tarix tilga kirsa So'g'd tarixi umuman O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatbaho ma'lumotlar qo'lga kiritilsa, o'lkamiz tarixi yana chuqurroq o'rganilsa va Imam Bahra Ota yodgorligi yoniga

So`nggi so`z o`rnida o`z xulosalarimni aytsam, Dabus qal'a tarixi muzeyi ochilsa biz yoshlar o'zimiz yashayotgan joy naqadar muhim tarixga va Samarqand shahridagi Registon va boshqa obidalar singari bu obida ham o'zining buyuk tarixiga egaligini bilib bundan faxrlangan bo'lar edik. Bu joyni turistik makonga aylantirsak Paxtachi tumani ham dunyoga mashhur joy bo'lib qolar edi. Shuningdek Dabus qal'ani turistik zonaga aylantirsak turli joylardan kelgan mehmonlar yangi hududga qiziqib keliahadi va vatanimizga ham ancha foyda olib keladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **VAYRONA DABUSQAL'AM**

*Uchqur ot tuyog'idan gumburlar qal'am mening,  
O'tkir qilich zarbidan uzilgan kallam mening,  
Ona Yer faryodidan falakda nolam mening,  
Armon to'la ko'ksimda iztirob alam mening:  
Vayronaga aylangan, o Dabusqal'am mening.  
Millatim deb yig'lagan otam ham tuproq bugun,  
Elatim deb yig'lagan onam ham tuproq bugun,  
Bobo ruhdan bezovta yig'ladim ko'proq bugun,  
Ertaga uvvos solib yig'lagay bolam mening:  
Vayronaga aylangan, o Dabusqal'am mening.  
Turli urug' – o'zbeklar to o'lguncha olishdi,  
Sovut kiyib, qilichlar to singuncha solishdi,*

*Keng dunyoga sig'mayin mozor bo'lib qolishdi,  
Nodon qo'lida sirtmoq boshdagi sallam mening:  
Vayronaga aylangan, o Dabusqal'am mening.*

**Foydalaniman adabiyotlar ro`yxati.**

Manbalar:

1. Abdulfaray ibn Ja'far Qudama "Kitob ul- xiroj va san'at al- kitobia"
2. G'iyo's ul- lug'atda
3. A. Vamberi. Istorya Buxari ili Transoksanii s drevneyshix vremen do nastouyaushyego. – SPG: – 1873 g, – str. 28, 31).

Adabiyotlar.

4. I. I. Geyer. Turkestan. – 1909, – str. 207-208).

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ning 7-jildi 24, 25-sahifalari

5. . SHARQ MUMTOZ SHOIRALARI ASARLARIDA IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLAR, HAMDA GENDER TENGLIGI MASALASI. (NOZIMAXONIM IJODI MISOLIDA) Ahrorova Madina Rahmatovna “Sharq tillarini o‘qitishning dolzARB masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

6. Bargi xazon gullar yoxud erta turmush va uning oqibatlari/ Sitabonu Amriddinova Madina Ahrorova

"Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4

7. O'ZBEK MUMTOZ SHOIRLARI IJODIDA GENDER TENGLIGI MASALASI. Ahrorova Madina Rahmatovna stajyor o'qituvchisi Samarqand Davlat chet tillar instituti E-mail: akhrorova.madina@mail.ru (O'zbekiston,Samarqand.)

8. G'ARB VA SHARQ AYOLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIDAGI TAFOVUTLAR Ergasheva Sevinchbonu Axrorova Madina ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР;” ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР. Декабрь 2022 2-қисм Тошкент